

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

O'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi 3-v kurs tolibi

Matjanov Sheralining «O'zbek adabiyoti o'qitish metodikasi»

fanidan

“MAKTABDA ZULFIYA IJODINI O'RGANISHNING

SAMARALI USULLARI”

mavzusidagi

R E F E R A T I

“MAKTABDA ZULFIYA IJODINI O‘RGANISHNING SAMARALI USULLARI”

REJA:

I.Kirish

II.Asosiy qism:

- 1.Zulfiya hayoti va ijodiga bir nazar.**
- 2.Maktabda Zulfiya ijodini o‘rganishning samarali usullari**

III.Umumiy xulosalar

IV. Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

KIRISH

Zulfiya XX asr o'zbek shariyatining yirik namoyandalaridan biridir. U o'zining teran falsafiy, hayotning murakkab jabhalarini, insonning turfa rang tuyg'ularini, ruhiyatini aks ettirgan ajoyib lirik asarlari, dostonlari va otashin publitsistik asarlari bilan davr adabiyotida muhim iz qoldirgan ijodkor.

Zulfiya shariyati teran fikr va qaynoq hissiyot uyg'unligida hosil bo'lgan intellektual va psixologik shariyatdir. Shoira hissiyot oqimini, kechinma manzarasini, o'tkir dramatik xolatni ham buning eng cho'qqisi bo'lgan fijiaviy kolliziyalarni ham chizadi. Zulfiya shariyati manaviy boy, ruhiy tetik, va mardona shariyat. Unda vaqt va makon chegarasi qamrovi keng va yaxlit. Voqelik va inson taqdiri kechagi kuni, buguni va ertasi bilan uyg'unlikda aks ettiriladi. Shoira lirikasida «taqdir», «yurakka yaqin kimshilar», va «kaelajak» motivlari ifodasining muhim va barqarorligi ham mana shundan. Shoira ijodida ko'tarinki ruh, baxtiyorlik ohakngi bilan birga fojiaviylik yo'nalishining yonmayon kelishining boisi ham uning voqelikni, zamonni, insonni keng va yaxlit, butun murakkabligi bilan tahlil etish yo'lidan borganligidandir.

1.Zulfiya hayoti va ijodiga bir nazar.

Isroil Muslimov qizi Zulfiya 1915 yil 1 martda Toshkent shahrining O'qchi mahallasida temirchi oilasida tavallud topgan. Temirchilikdan kelgan nasiba bilan kun kechiruvchi bu oilada sher va musiqaga bo'lgan hurmat juda kuchli edi. Oilada tinch va fayzli vaziyatni yuzaga keltirishda shoira onasining o'rni alohida edi. Ona ko'p narsani bilguvchi, shoirtabiat, farzandlarini katta hayotga tayyorlaguvchi, zehnli va mehribon ayol edi.

Zulfiya boshlang'ich maktabni bitirgach, xotin-qizlar pedagogika o'quv yurtida tahsil oladi. Shu erda adabiyot bilan oshno bo'ladi, sherlar yozib, 1932 yilda, yani o'n etti yoshidayoq birinchi sherlar to'plami «Hayot varaqlari» kitobini elon qiladi. Ammo shoira bu kitobida olamga, hayotga kishilarga, voqelikka o'z nuqtai nazaridan qarash darajasiga ko'tarilmadi. Shoiraning 1935 yilda o'z taqdirini H.Olimjon bilan bog'lashi uning ijodi va hayotida katta burilish yasadi.

Shoira ilmini oshirishga astoydil harakat qildi. Shu niyatda 1935-1938 yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasining A.S.Pushkin nomli til va adabiyot instituti qoshidagi aspiranturada tahsil oldi. Bolalar nashriyotida muharrirlik qildi. «O'zbekiston» davlat nashriyotida bo'lim boshlig'i vazifasida faoliyat ko'rsatdi. Urush va uning oqibatlarini Zulfiya uchun ham katta sinov bo'ldi. Zulfiya taqdir nasib qilgan katta yo'qotish – Hamid Olimjonning halokatidan o'zini yo'qotib qo'ymadi. Tanlagan yo'lida sobit turib ijod va ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullandi. 1953-1980 yillarda «Saodat» (avvalgi «O'zbekiston xotin-qizlari») jurnalida bosh muharrir vazifasida ishladi, Osiyo va Afrika yozuvchilari harakatida faol ishtirok etdi. Shoira Hindiston, Yugoslaviya, Shri Lanka, Misr, Birma, Avstriya kabi mamlakatlarda bo'lib o'tgan adabiy tadbirlarda yurtimiz vakili sifatida ishtirok etdi. Zulfiyaga berilgan qo'sha-qo'sha orden va medallar uning elu yurt oldidagi xizmatlaridan dalolat beradi. U Respublika Davlat mukofoti sovrindori, sobiq SSSR Davlat mukofoti laureati, O'zbekiston xalq shoirasi, Xalqaro «Nilufar» mukofoti, «Krill va Meffodiy» nomli Bolgariya Davlat mukofoti kabi unvon va nishonlar sohibasidir.

Zulfiya shariyati teran fikr va qaynoq hissiyot uyg'unligida hosil bo'lgan intellektual va psixologik shariyatdir. Shoiri hissiyot oqimini, kechinma manzarasini, o'tkir dramatik xolatni ham buning eng cho'qqisi bo'lgan fijiaviy kolliziyalarni ham chizadi. Zulfiya shariyati manaviy boy, ruhiy tetik, va mardona shariyat. Unda vaqt va makon chegarasi qamrovi keng va yaxlit. Voqelik va inson taqdiri kechagi kuni, buguni va ertasi bilan uyg'unlikda aks ettiriladi. Shoiri lirikasida «taqdir», «yurakka yaqin kimshilar», va «kaelajak» motivlari ifodasining muhim va barqarorligi ham mana shundan. Shoiri ijodida ko'tarinki ruh, baxtiyorlik ohanglari bilan birga fojiaaviylik yo'nalishining yonmayon kelishining boisi ham uning voqelikni, zamonni, insonni keng va yaxlit, butun murakkabligi bilan tahlil etish yo'lidan borganligidandir. Shoiri lirik qahramoni tarixning shukuhli xulosalariga ham, achchiq saboqlariga ham birday munosabat bildiradi. «Kechmishim yolg'iz bir alifbo - saboqday» deydi shoiri «Kelajak» shirida. Shoiri yana bir shirida shunday yozadi:

Ne yozsam tub-tubdan hayotga doir,

Insoniy qalbimning tebranishi ul.

Bu erda shoir lirik qahramonining bir-biriga tutash ikki xususiyatiga ishora bor. Biri shoiraning ilk to'plami hisoblanmish «Hayot varaqlari» kitobidan boshlangan ijodiy tamoyil – hayotga, insonlar qalbiga yaqinlik, ya'ni mavzuni, fikrni, tuyg'uni, orzu-armonlarni shulardan qidirish; ikkinchisi – shu hayot, voqelik va insonlar mehnati, kurashi natijasida ular qalbida tug'ilgan fikr va kechinmalarni ifodalashdir. Boshqacha ay tadingan bo'lsak, shoiri qalb torlaridan chiqqan ohanglar tashqi dunyo – hayot zarblarining – yurak urishining aks sadosidir. «Men sherlarimning bir mavzu atrofida cheklanib qolishini istamayman» degan Zulfiyaning lirikasi chindan ham ko'p ovozli va serohang shariyat namunalari sanaladi. Ammo bu ohanglarning eng markaziysi va abaland jaranglagani yana takrorlash mumkin bu – baxtiyorlik, shodlik va hijron, g'am-fojiaaviylikdir. Shoiri o'z sherlari xususida

Mayusi ham, yorqini ham bor,

Tuproq, hayot, yurak bu axir!

deydi. U yana bir sherida o'z soziga murojaat etib, «Sen toq emas, ikki torli soz, qo'sh qanot-la qilasan parvoz», degan edi. Garchi shoira bu o'rinda Hamid Olimjonni ham nazarda tutayotgan bo'lsa-da, aslida o'zining ijodiy tamoyilini ko'zda tutib, takidlamogda (Zulfiya H.Olimjon obraziga murojaat etib, «Hijroning qalbmida, sozing qo'limda» degan edi). H.Olimjon baxt va shodlik kuychisi edi, shuning uchun uning sheriyatida shodlik ohangi, ko'tarinki ruh etakchi edi. Zulfiya o'z ijodida H.Olimjondagi xuddi shu yo'lni, shu tamoyilni o'ziga yarasha davom ettirdi. Bu shoira lirikasining bir qanoti bo'lsa, ikkinchisi – voqelikni butun ziddiyatlari, fojaviy tomonlari bilan ko'rsatib orqali qahramonlikni ulug'lashdir. Zulfiya sheriyatida fojaviylikni keltirib chiqargan tarixiy asos uning tarjimai holiga shaxsiy hayotiga ham bog'liq. Zulfiya sheriyatining o'ziga xos jihatlaridan birini tashkil qiluvchi ushbu avtobiografizm shoira lirikasining qariyb barcha namunalarida sezilib turadi. Avtobiografik asosning kuchliligi va fojaviylik ohanginipng ustunligi Zulfiya sherlarida yana bir o'ziga xoslikni – voqeaviylikni, miniatyur syujetlilikni yuzaga keltirgan.

Shoir Sergey Esenin «O'zim haqimda» nomli tarjimai holida tug'ilgan joyi, vaqti, o'qigan maktabi haqida qisqa malumotlardan keyin «qolgan avtobiografik malumotlarga kelsak, ular mening sherlarimda», deya gapni muxtasar qiladi. Mana shu xil fikrni Zulfiya ham ayigan: «Mening nazarimda, shoirlar o'z tarjimai hollarini yozmasliklari joiz. Negaki shoirlar haqida sharlari tavsif beradi, ular haqida hamma narsani aytib bermasa ham, ijodlarida hayotlarining ko'pchilik tomonlarini sharx etib berishga qodir sherlar bo'ladi.»

Bu qaydlarda isbot talab qilmaydigan haqiqat mavjud. To'g'ri, bazi shoirlarning asarlarida shoirning «Men»idan tashqari olam turgandek tuyuladi. Masalan, G'.G'ulom «Men o'z xalqimning tiliman», deb takidlagan bo'lsa-da, uning asarlarini – yaratilishi, mazmuni, g'oyasi, maqsad va ideallarini shoir bosib o'tgan yo'llar – tarjimai holidan mutlaqo ajratib bo'lmaydi. Shoirning «Sen etim emassan», «Kuzatish» kabi qator sherlarida uning tarjimai holining yorqin sahifalari, aniqrog'i ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan nuqtalari aks ettirilgan. Shoirning tashqi dunyoga munosabatining ifodasi lirikaning tub maqsadi ekan, va shu munosabat shoirning fikri, his-tuyg'ulari va kechinmalari

orqali tasvirlanar ekan, har bir misrani yurak qoni va aql chirog'i bilan yozar ekan, demak bunga ijodkor qalbi, tarixi tarjimai holining lahzalari, xulosalari qo'shilmasdan iloji yo'q. Ammo shoirlar o'ziniki bilan o'zganikini kuylash printsipida bir-birlaridan farqlanadilar. Masalan, G'.G'ulom tashqi olam hodisalarini baholashda shu olamning tajriba va xulosalaridan kelib chiqadi, o'zinikini o'shalarga qo'shib yuboradi, tarjimai holiga oid detallar, holatlar, dalillar, fikr, xulosalarni o'zgalarnikiga singdirib, edirib yuboradi. Zulfiya esa, tashqi olamdagi rang-barang hodislarning, fikr, g'oya, orzu-ideallarning o'z ruhiga, o'z dunyoqarashiga, tajimai holiga, taqdiriga, istak, ideallariga hamohangligini ko'radi, tinglaydi, oladi va shu tashqi olamni, o'zgalarnikini o'zinikiga qo'shib, omuxta qilib yuboradi. Zamon muhit tug'dirgan qalbidagi ijtimoiy mazmunga molik tuyg'ular, holat va kechinmalar talqini ifodasiga tipik, umuminsoniy fikr va g'oyalarni ifodalaydi. Shuning uchun ham Zulfiyaning o'ziga xos ovozi ham uning hayotga, voqelikka o'z tajribalaridan kelib chiqib, o'z nuqtai nazari, o'z qalb o'lchovi bilan baho bera boshlaganidan keyin qaror topdi, shakllana va rivojlana boshladi.

Urush yillari Zulfiya ijodi uchun kamolot davri bo'ldi. Uning ijodida yuzaki dard, ziddiyatlarni o'ylab chiqarishga o'rin qolmadi. Turmushning qatiyat bilan haqqoniy so'z aytishni talab qildi. Zulfiya o'sha davrni eslab quyidagicha yozadi: «Men bu sherlarga o'z ruhiy tariximning bir parchasini joylashtira boshladim, bu parchaning o'z tuguni, kulminatsiyasi va echimi bor edi. Endi yozmoq uchun, Lev Tolstoy aytganidek, gapning uchini uchiga ulab ulab olishim kerak edi. Sherni boshlab qo'yib, oxirini topmagunimcha uni davom ettira olmasdim. Endilikda qayoqqak qarab ketayotganligimni bilganimdan yo'lning eng qisqasini izlab topa olardim. Natijada sherlarim muxtasar va tugal bo'la boshladi.»

Bu davrdan etiboran shoira ijodida keskin burilish yuz berdi. Norvegiyalik dramaturg Henrix Ibsen aytganidek, «Boshdan kechirmoq bilan yashamoqni bir-biridan farqlamoq kerak, faqat birinchisigina ijod manbai bo'lib xizmat qiladi.» Shoira ana shu boshdan kechirganini, hayotiy tajribalarini, ruhiy tarixini, hissiy holatlarini, qalb zarblarini berish orqali keng olamga va qalb

tubiga chuqur kirib bordi. Bu ayniqsa, H.Olimjonning fojiali vafotidan keyin yaratgan hijron motivlari aks etgan sherlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu albatta, Zulfiyaning avvalgi sherlarida hayotiysi yo'q deganimiz emas. Zulfiya baxtiyor ayollar ruhiyatini aks ettiruvchi sherlar, urush boshlanishidanoq xotin-qizlar irodasi va mardligini ochuvchi asarlar yozdi. Qolaversa, hijron mavzusi hali H.Olimjon tirikligidayoq Zulfiya sherryatida mavjud edi. Shoiraning «Uni Farhod der edilar» dostoni H.Olimjon tomonidan tahrir qilinib, bosmaga tushirilgan «Hijron kunlarida» sherry to'plamida ham bu mavzu etakchi motiv sifatida kuylanadi. Bu Zulfiya ijodidagi mahzunlik, fojiaviylik faqat shoira kechinmalari bilangina bog'liq bo'lmay, uning lirik qahramonining umumlashma xarakterini, xalq turmushi va ruhiyati bilan hamohangligini ko'rsatadi.

Zulfiya hijron motivi orqali xalq irodasi, jasorati va g'alabaga bo'lgan ishonchini kuyladi. Hatto shoira:

Men sevgan dildorning sevgan yurti bor,
Ishq doim erk uchun hijronga rozi.
Bu hijron mangumas, visoli ham bor,
Qahraton qishlarning bo'lganday yozi.

deb yozib, hijronning o'tkinchiligini takidlaydi. Keyincha voqelikning o'zi va shoiraning shaxsiy hayoti bilan aloqador bo'lgan hodisa (H.Olijon halokati) ushbu aytilgan fikrga tahrir kiritdi – hijronning mangu bo'lishi ham mumkinligini anglatdi. Ammo bizning bu o'rinda takidlamochi fikrimiz boshqa – shoira xalq ruhini, uning dard va quvonchlarini o'ziniki tarzda, o'zgalarning hijroni, g'ami, shodligini o'ziniki sifatida chuqur his etib kuylay oldi, demoqchimiz.

Angliyalik shoir Persi Bish Shelli takidlaganidek, «Haqiqiy olijanob bo'lish uchun inson o'zini o'zganing va ko'pgina boshqa birovlarining o'rnida tasavvur qila bilishi kerak; g'am shodlik va shunga o'xshagan narsalar uning o'zinikiga aylanishi shart». Zulfiya bu yillarda xuddi mana shu ijodiy printsipga suyanganida, albatta, keyin ham bu yo'l unga hamroh bo'ldi. Masalan, shoira 1942 yilda shunday yozgandi:

İshonchim buyukki, bo'lur zo'r bayram,
Mening sevganim ham qaytadi g'olib.
Yo'lga chiqaman quchog'im to'la
Bog'laringda o'sgan gullardan olib.

«Mening Vatanim»

Shoira g'alaba munosabati bilan yozgan «G'oliblar qaytganda» sherida go'yo yuqoridagi sher mavzusini davom ettirganday, diqqatini o'sha lirik qahramonning kayfiyatini chizishga qaratadi. G'alaba ko'plarining hijroniga chek qo'ydi, «o'ldiruvchi achchiq bir hijron zafar alangasida tamom yondi». Ammo lirik qahramonning sevgilisi qaytmadi, olamni shu g'alaba shodiyonasi bosgan bir paytda u sevgilisining suratini olib, «unga o'ksib-o'ksib» boqadi. Yonog'ida tomchilar qotgan ayol «chikmasam bo'lmaydi, butun elda to'y» degan qarorga keladi. Guldasta olib g'oliblarni qutlaydi, visolga oshiqqan quvnoq to'daga qyashilib ketadi. Yoki «O'g'lim, sira bo'lmaydi urush» sherida jangda eridan ajralgan ayol haqida yozib, uning goh yigit bo'lib qolgan o'g'lidan g'ururlanishini, goh yonida uning otasi yo'qligidan o'kinishini tasvirlaydi. Lirik qaxramon – ona deydi:

Urush! Noming o'chsin jahonda,
Hamon bitmas sen solgan alam.
Sen tufayli ko'p xonadonda
Ota nomli buyuk shodlike kam.
Yulding ota demak baxtini,
Juda murg'ak go'daklarimdan.
Yaxshi ham bor shunday Vatanim,
Dalda bo'ldi yuraklarimga.

İkkala sherda ham Zulfiya o'zgalarning shodlik va g'amini o'zinikidek his etadi, o'zinikini esa xalqnikiga qo'shib yuboradi. G'alaba kuni u ushbu ayyomni orziqib kutgan H.Olimjonni eslarkan, ushbu shaxsiy qismatini urushda yaqinlaridan judo bo'lgan ming-minglab kishilarnikiga ko'shib yuboradi. Sherda mana shu xil umumlashtirish usulini qo'llash, soddaroq qilib aytganda, tarjimai holdan atayin yiroqlashish «O'g'lim, sira bo'lmaydi urush» sherining

tasirchanligini taminlagan. Zulfiyaning H.O'limjon halokatidan keyingi yaratilgan sherlarida – ularning mavzusi va mazmunidan qat'iy nazar, ushbu usul shoira uchun asosiy tamoyil bo'lib qoldi.

Demak, Zulfiyaning H.Olimjon haqidagi sherlari bo'ronli zamon, suronli hayot tasirida shoira qalbida hosil bo'lgan to'lqinlarning aks sadosi, shoira hayoti va ruhiy tarixiyning lirik kundaligidan iboratdir. Agar G'.G'ulom va Mirtemir asarlari uchun qaynoq hayot va xilma-xil odamlarning taqdiri prototip bo'lib xizmat qilsa, Zulfiya uchun aksari vaqtda o'z hayoti va taqdiri bilan o'zgalarni qo'shilgan holda prototip rolini o'ynaydi. Shuning uchun ham Zulfiyaning H.Olimjon va hijron mavzusidagi sherlari ulug' sevgi va chin vafo, insonning baxti va sadoqati, og'ir yo'qotish va iztirob, mardlik va jasorat, Vatan va burch, o'tmish va bugun, kelajak, xullas inson taqdiri, uning ruhiy olami bilan bog'liq xilma-xil tuyg'u hissiyot va kechinma, orzu-armonlar to'g'risidagi sarlar sifatida qabul qilinadi, ardoqlanadi. Shuning uchun bu sherlar markazida turgan xarakterlar xalqimiz fazilatlarini o'zlarida mujassamlashtirgan tipik xarakter sifatida qadrli va jozibalidir.

Mana, «o'lim xanjari» sevishtganlarni bir-birlaridan judo qildi, hijron o'tida qildək jizg'anagi chiqqan o'sha ayol «ajal degan beshafqatga ishqini otib, baxtini saqlab» qolsa, va sevgining nigohiga termulib, «erkalanib jon bersa» («Kechir, qoldim g'aflatda»); ayol bir daqiqa ham – tushida ham o'ngida ham sevgilisini esidan chiqarmaydi («Bahor keldi seni so'roqlab»); tirikligida yigit yoriga gul keltirgan bo'lsa, taqdirga qarangki, endi ayol sevglisi qabriga gul keltiradi («Hayot jilosi»), lekin ayol bukilmaydi, yorning xayoli bilan yashaydi, uning xayolining o'zi ham lirik qahramonga bitmas-tuganmas ilhom bag'ishlaydi. Zulfiyaning XX asr o'zbek shariyatiga katta hissasidan biri ham uning lirikada voqeani va inson qalbini butun murakkabliklari, ziddiyatlari va fojiaiy holatlari bilan aks ettirganidir. Shoira lirikadagi qahramona ruh, yo'nalishning muqim bo'lishiga izchil amal qildi, bu realistik tamoyilning yangi imkoniyatlarini kashf etdi. Chindan ham bu eng mushkul, ammo hayotiy haqiqatni, tarixning ulkan g'ovlarini engib olg'a qadam bosishini realistik yoritib berishning samarali yo'lidir.

Zulfiya boqiy baxt orzusi bilan turkum sherlar yaratdi. Turkumga kirgan har bir sher mustaqil asar darajasiga ko'tarildi. Ayni chog'da mazmuni, ruhiy yo'nalishi bilan o'zaro bog'landi. Shoiraning sheriy turkumlari ko'p, har birida uning ruhiy olamining yangi qirrasini namoyon bo'lgan. Agar «Hijron kunlarida» turkumida urushning dahshatli kunlarida, shafqatsizlarcha ezilgan, azoblangan qalbning g'olib chiqishi ifodalansa, «Yuragimga yaqin kishilar» turkumida shu insondagi matonat, sadoqat, nekbinlik ildizini odamlar mehri, on Vatan mehrida ko'radi. «Mushoira» turkumida inson taqdiri, tashvish-intilishlari mushtarakligi takidlanadi. «O'ylar» va «Yillar, yillar» turkumlari esa, inson va hayot, umr mazmuni, muhabbat va sadoqat, yashash va kurash manosi to'g'risida mulohaza yuritiladi...

Zulfiya lirik qahramoniga xos yana bir xususiyat bor. U hayotdagi hamma narsa haqida va inson qalbidagi xilma-xil kayfiyatlar haqida qayg'uradi. Ularni ayol qalbi bilan tinglab, ayol ko'zi bilan ko'rib, idrok etib, ayol so'zi bilan tasvirlaydi, ayolning ovozi kuylaydi. Shoiraning qaysi sheriga nazar tashlamang, undagi obrazlar ham ayollar dunyosidan olingan, tashbehlari ayollar bisotidan to'qilgan. To'g'ri, asarning g'oyaviylik va badiiylik darajasi mezonlari shoirlar uchun ham, shoiralar uchun ham bir xil. Biroq voqelikni ko'rish va badiiy tadqiq etishda mushtaraklik bilan birga o'ziga xosliklar ham mavjud. Shoiralar qalbi g'oyat nozik, dilgir, sezgir, bezovta va beorom va bardoshli bo'ladi. Ularda butun insoniyatni o'z farzandi sifatida his qilish, ona zaminni va undagi go'zalliklarni ko'z qorachig'idek asrashga intilish, kelajakni go'dakdek yo'rgaklab olishga, uni saqlab qolishga tayyorlik tuyg'usi jo'shqin ifodalanadi. Zulfiya qalamidan chiqqan har bir so'z, toza obraz, yorqin bo'yoqda shoira qalbining muhri sifatida arqirab ko'rinib turadi.

2. MAKTABDA ZULFIYA IJODINI O'RGANISHNING SAMARALI USULLARI

V-IX sinflarda o'quvchilar maktab o'quv dasturidan o'rin olgan she'riy asarlarni o'qib o'rganadilar. Ularni o'rganishda har bir she'rning shoir ijodida tutgan o'rni, she'rda shoir shaxsiyati, obrazining ifodalanishi o'quvchilarning yoshi va bilimi darajasiga mos ravishda tahlil qilinadi, she'rning mazmuni beriladi.

Bu sinflarda lirik asarni o'rganishning asosiy usuli o'qituvchi va o'quvchining ifodali o'qishidir. Bu ishda o'qituvchining o'zi she'rni ifodali o'qiydi, so'ngra ifodali o'qish qoidalariga rioya qilgan holda o'qishni o'quvchilardan talab etadi.

Ifodali o'qish bilan o'quvchi she'rda shoir tasvirlagan voqea, manzara, obraz haqida tasavvurga ega bo'ladi. Bunga u, har bir so'z, misra mazmunini chuqur o'zlashtirish orqali erishadi.

Maktabda she'riy asarlar turli shaklda tahlil qilaniladi: aniq reja asosida ifodali o'qiladi, ayrim so'z, misralarga izoh beriladi, obrazlar taqqoslanadi, suhbat tashkil qilinadi, tabiatga sayohat (bu sirtdan bo'lishi ham mumkin) uyushtiriladi, rasmlar namoyish etiladi, texnika vositalaridan foydalaniladi. Bu usullar ko'zlangan maqsad va vazifadan kelib chiqqan, xususiyati, o'quvchilar tayyorgarligi, qiziqishini hisobga olgan holda qo'llaniladi.

Lirik asar tahlili kirish va yakunlovchi mashg'ulotlarni o'z ichiga olgan suhbat yo'li bilan o'tkazilganda o'quvchilar o'qituvchining asar va uning muallifi haqida qilgan qiziqarli kirish so'zini qiziqish bilan tinglaydilar va suhbatda faol ishtirok etadilar.

Zulfiya sherlaridan birida «Axir men gar shoir, dildiroq ayol» der ekan, ayol shoiraning mana shu bezovta va oshufta onalik qalbini nazarda tutadi, butun etiborini ana shu onani kuylashga qaratadi. Ona uchun oila, uy-joy, farzandlar davrasi muqaddas maskan. Bu erda eri, farzandlari, oilaviy baxti, taqdiri turadi, u kichik vatan.

Shoira sherlaridan birini kuzataylik: Osiyo oftobi chiqar ekan, ilk nurini go'dakka sochadi («Osiyo go'dagini ilk oftob quchar, cho'miltirar doya nurda qoq kunduz»).

Englaring qatida,
Ro'moling uchida,
Qanoting patida,
Jahonday beqiyos dasturxon ichida
Kechadi hech bitmas tilaklar.

Ushbu parchadagi «eng», «ro'mol», «qanot» va «dasturxon» obrazlari ham ayollar bisotidan olingan. Ayol uchun har qanday hiddan yoqimlisi go'dak isidir. Gul isini ayol go'dak isiga, nafasiga o'xshatadi. Ona uchun farzandning hammasi birday sevimli. Bu tuyg'uni shoira g'oyat chiroyli, yangi, ohori to'kilmagan obrazlar orqali beradi. «Farzandning Vatanday nosuyugi yo'q», deydi Zulfiya. Shoira O'zbekiston tabiatini atlasga, yasangan kelinchakka o'xshatadi, kuz yomg'irini gavhar shodasiga,, erta bahordagi tuproqni «hamisha nematga homila tuproqqa» qiyos qiladi. Bu xil obrazlar faqatgina ayol lirik qahramongagina xos hisoblanadi.

«Uni Farhod der edilar» dostonida ham ayol qalbining sezgir va beorom tabiatini kuzatamiz. Doston hozirgacha o'z fayzi-tarovatini saqlab qolganligi ham shundandir balki. Asar markazida qahramonning vatanparvarlik, mardlik bilan to'la manaviy dunyosi tahlil etiladi. Asar zamirida sanatkorning so'zi bilan ishi bir bo'lishi kerak, degan fikr mavjud. Qobilqori o'zbek sahnasida juda ko'p rollarni ijro etib, qahramonlik, insonparvarlik, Vatanga jonfidolik kabi tuyg'ularni targ'ib qilgan edi. Uning istedodiga qoyil qolgan tomoshabinlar Farhod rolini ijro etgan Qobilqorini qahramoni nomi bilan atardilar. Shoira xalqning mana shu mehri-muhabbatidan kelib chiqib, dostonni «Uni Farhod der edilar» deya nomlagan. Qobilqorining so'zi bilan ishi bir. U frontda Vatan uchun jonini fido qiladi – ozodlik yo'lida qurbon bo'ladi.

Respublikamizning milliy mustaqillikka erishishi Zulfiya ijodi ilhom bulog'ini ochib yubordi. Yillar davomida qimtinib, haqiqatni boricha ayta olmay, yuragi o'rtanib yurgan shoira yangi davr boshlanganligini teran his etdi.

Bosib o'tilgan yo'lga yangi nuqtai nazar – adolat ko'zi bilan boqib, voqea-hodisalarni o'z nomi bilan atab, haqqoniy, realistik sherlar yaratdi. 1995 yilda yaratilgan «Sharqning o'zi ona bo'lgan hamisha», «Iqroga vaqt etdi» sherlari, «Xotiram siniqlari» dostoni shoira ijodining yangi sahifalari sifatida sherxon ko'nglini ishg'ol qildi. Xususan, shoira «Shaqrning o'zi ona bo'lgan hamisha» sheriga «Boy o'tmishimizga tuhmat toshlarini otayotgan horijdagi bazi olimlarga mening javobim» deya izoh beradi. Bir yillari G'.G'ulom «Sharaf qo'lyozmasi» sherida o'zbeklarni bir qabila deb atagan chet ellik olimga javob tariqasida yozib, unda ajdodlarimizning jahon tamadduniga qo'shgan hissa haqida faxr va g'urur bilan kuylagandi. Zulfiya ushbu sherida mana shu ananani davom ettirib, xalqimizning hech qachon savodsiz va avom va qul bo'lmagani, o'z mustaqilligi va sharafi uchun kurashchan xalq ekanligini, insoniyat tarixi g'ildiragini olg'a siljitishga doimo hissa qo'shib kelganligini takidlaydi.

Zulfiya ulug' ajdodlarimizni shunchaki tilga olmay, tarixning o'zini guvohlikka chaqirib, o'z fikrini isbotlaydi. O'quvchida ham o'tmishimiz, otaboblarimiz bilan faxrlanish tuyg'usini paydo qiladi.

Biling,

Komil,

Fozil

Bashar yulduzlariga

Sharqning o'zi ona bo'lgan hamisha! -

deb uqtiradi.

«Xotiram siniqlari» dostoni shariyatimizda muhim voqea bo'ldi. U istedod hamisha qarimasligi va har doim o'zining yangi-yangi qirralarini namoyish etishi mumkinligini tasdiqladi. Zulfiya bu dostonga o'z tarjimai holini asos qilib olib, xalqimizning og'ir, dahshatli, ammo qahramonona yo'lini haqqoniy ifodalab berdi. Shoira voqea hodisalar, kishilar obrazlarini shunday tasvirlab beradiki, natijada shoira ota-onalari, akalari va o'zi siymolari tirik kishilardek kitobxon ko'z oldida gavdalanadi. Dahshatli qatog'on davri qilichi Zulfiya oilasi boshida ham o'ynaydi. Ushbu yillarda otasidan umrbod judo

bo'lgan yosh Zulfiyada qatog'on tepasida turgan qora kuchlarga nisbatan o'chmas nafrat paydo bo'ladi.

Shoira adolatsiz tuzumni va «muhtasham binoda sirli, yashirin, asl yigitlarga go'r qazuvchilar»ni qahr va alam bilan fosh etar ekan, odamlarning g'ofilligini ham unutmaydi, zulm, nohaqlikka qarshi bosh ko'tarmaganliklariga ishora qiladi. U xalqimiz ruhiyatidagi hamma narsaga sabr-bardosh bilan qarash xususiyati faqat fazilat keltirmayajagini takidlaydi:

Va faqat dedingiz «Soldim xudoga!»

Bu qirg'in doyasi xudosizlar-ku!

Sabr-qanoatdan yaralgan elim,

So'qir ham o'ziga so'qmoq izlar-ku!

Norg'ul o'g'lonlaring qirildi qushday

Sibirning nur tushmas o'rmonlarida.

Sen esa yasharding misoli tushda,

Turtinib g'ofillik tumanlarida.

Bu rost gap, achchiq haqiqat edi. Shoira o'zini ham unutmaydi. O'zzi bu vaqtda qaerda edi? Qanday yo'l tutdi. «Menmi? Men ishq otlig' bir jahon aro sher tinglab, sher tizib, sherlarda qoldim», «Urush yozda yoqqan qor kabi o'lim», «Ko'z yoshim guliga to'kildi gulim» deydi. Ha, avval sher zavqi, o'tli muhabbat shavqi shoirani asir qildi, keyin o'lim – hijron uning topgan murg'ak baxtini yuragidan yulib oldi. Bu kunga kelib shoira xalq boshiga tushgan bu fojialar saba-ildizlarini qidirib, adolatsizlikka qarshi isyon ko'tarmaganidan, xalqning bu qismatga chidab, ko'nib yashaganidan ming-ming afsus chekadi, yuragi o'rtanadi, yonadi. «Betlab, benishon yashabmiz ko'p yil», «Vatanparvar» debmiz o'z-o'zimizni», «Suyanib nojotlar kutgandek nahot bizga choh qazigan qora kuchlarga»? - deb pushaymon qiladi. Shoiraning oldida do'zax va jannat masalasi ko'ndalang bo'ladi. «Yaxshilik ko'p qildikmi yoki yomon amallarga ko'proq ko'ngil bo'ldikmi?» degan savolga javob izlaydi. Keyinchalik o'zi shunday ham «Bosh-oyoq kuyuk jismning nimasini yoqardi do'zax o'tlari!» degan xulosaga keladi.

Ko'rinadiki, shoira zamon, davr, xalq boshiga tushgan dard, jabr-jafoni xuddi o'zinikiday, o'zinikini xalqnikipay qilib tasvirlab beradi. Doston bekorga «Xotira siniqlari» deb nomlanmagan. Bu xotiralar- xalq tarixi shunchaki xotiralar, shunchaki tarix emas, balki «dardli, tig'li» siniqlar bo'lib, doimo yurakni tilib, qonatib, ozor berib turadi. Ular bir saboq. Shu tufayli shoira intiqlik bilan kutgan istiqloldan cheksiz minnatdor:

Hurriyat, keldingmi, nahotki kelding,

Kelar yo'llaringda pinhona toldim.

Mening ota-onam jon va tanimda,

Elim taqdirida abadiy qolding.

Xullas, Zulfiya shariyatining aksariyatida shoira lirik qahramoni xalq dardi va quvonchi bilan yashovchi, dardidan azoblanadigan, zafarlaridan quvonadigan zamondoshimiz sifatida ko'zga tashlanadi. Bu holat uning sof lirik asarlarida emas balki lirik ruh ustivor bo'lgan «Uni Farhod der edilar», «Xotiram siniqlari» kabi dostonlarida ham etakchi xususiyat sifatida kitobxon diqqatini o'ziga jalb qiladi.

UMUMIY XULOSALAR

Zulfiya o'z davrining kuychisi bo'ldi.

1944 yilda Zulfiyaning turmush o'rtog'i Hamid Olimjondan ayrilishi uning shariyatida hijron va vafo doimiy mavzu bo'lib qolishiga sabab bo'ldi. Bu sherlar mumtoz adabiyotimizda uzoq davrlardan beri kuylanib kelayotgan yor vaslidan yiroqdagi xomush oshiq tilidan aytiladigan g'azallarga o'xshaydi, desak xato bo'lmasa kerak.

Zulfiya uzoq yillar davomida Respublikamizdagi nufuzli matbuot organlarida, nashriyotlarda rahbar lavozimlarda faoliyat ko'rsatdi. U mamlakatimizdagi yosh ijodkorlarni, ayniqsa, xotin-qizlar o'arasidagi talantli qizlarni qo'llab-quvvatladi, ularga ustozlik qildi. Shuning uchun ham Zulfiya nomi nafaqat u qoldirgan adabiy merosda, balki shogirdlari qalbida, shogirdlari yaratgan bag'ishlov asarlarda ham yashaydi.

Ma'lumki, lirikada nasriy va dramatik turlardan farqli o'laroq, voqelik shaxsning his-tuyg'ulari, kechinmalari, idroki orqali aks etadi. She'riy shakl lirikaning xarakterli xususiyati bo'lib, shoir his-tuyg'usiga to'la beriladi. She'riy shakl lirikada ohangdorlik va musiqiylikni vujudga keltiradi. Shoir she'rlarini o'rgatishda lirik turning ana shu xususiyatlariga alohida e'tibor berish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch.T. “Ma'naviyat”. 2008.
- 2.Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. I jild. T., Fan, 1978.
- 3.Boboev.T. Adabiyotshunoslik asoslari. T. «O'zbekiston», 2002.
4. Salaev F.Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi.T. Yangi asr avlodi. 2010.
5. DTS. “Til va adabiyot ta'limi” jurnali 2008-yil, 8-son.
- 6.To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. T. “Yangi asr avlodi”. 2006.
- 7.Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T. “O'qituvshi” 1996.
- 8.Zulfiya. Asarlar. 2 tomlik. Toshkent, Adabiyot va sanat nashriyoti, 1974.
- 9.Zulfiya. Shalola. Toshkent, Adabiyot va sanat nashriyoti, 1989.
10. <http://pedagog.uz/>
11. o'o'o'./o'zbek adabiyoti.com